



*Institutsiyalariga yanada e'tibor bersak, Qadimgi Rimda yo'llarning qalinligi ushbu yo'llardan foydalanish talabi bilan o'lgangan. Oddiy xalq foydalanadigan yo'llar shag'al va tosh **ikki qavatli** qilib yotqizilgan. Markaziy shaharga boradigan yo'llar va armiya harakatlanadigan yo'llar esa **uch qavatli** qilib taxlangan. Ushbu yo'llar shunchalik yaxshi qurilganki, ularning ba'zilarini hozir ham Italiyada uchratishimiz mumkin. Yana yo'l qurilish jarayonida boshqa kishilarning xususiy mulkiga xalaqit bermaslik, ularga zarar yetkazmaslik uchun ularning hududi bilan ma'lum masofada yo'l qurilishi amalga oshirilgan:*

*"Fest.Deverb.Signif., 4: Aylanib o'tish joyi, ya'ni imorat atrofidagi qurilishsiz joy **2,5 fut** kengligida bo'lishi kerak."*

O'zbekiston Respublikasi "O'zbekiston Respublikasi hududidagi avtomobil yo'llarida xavfsizlikni ta'minlash va tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Vazirlar Mahkamasi qarorida mamlakatda asfalt yo'l yotqizish, avtomobil yo'llarini loyihalash, qurish, rekonstruksiya qilish, ta'mirlash, saqlash kabi vazifalar keltirib o'tilgan. Unda yo'llarning o'lchami, loyihalash jarayoni, to'shamasi haqida normalar keltirib o'tilgan, biroq avtomobil yo'lining sifati to'g'risida biror ma'lumot keltirilmagan. *Qonun hujjatiga avtomobil yo'lining sifati, uning tarkibi to'g'risida biror nizom ishlab chiqish kerak deb hisoblayman.* Ma'lumki, Qadimgi Rim yo'llari qurilishida asfalt ishlatilmagan. Ular asosan qum, shag'al, tosh, betondan ishlangan. Aynan mana shu elementlar yo'llarning chidamli bo'lishini ta'minlagan. Hozirda O'zbekiston Respublikasida mavjud avtomobil yo'llarining uzunligi 184.000 km ni tashkil qiladi. Bular quyidagicha:

Respublika hududida joylashgan  
ko'chalar **116 560 km**

Umumiy foydalaniladigan yo'llar  
**42695 km**

yuridik tashkilot yo'llari  
**24 745 km**

Ularning asosiy qismi asfalt-beton qorishmasidan ishlangan. Avtomobil yo'llarini qurishda Qadimgi Rim malakasi hamda rivojlangan mamlakatlar tajribasini hisobga olish maqsadga muvofiq deb hisoblayman. Hozirda davlatlar asfalt-beton qoplamali yo'l o'rniga sement-beton qoplamali yo'llar qurishni afzal ko'rishmoqda. ***Nega sement-beton yo'llar yaxshiroq? Quyidagi jadval orqali uning ijobiy taraflarini ko'rib chiqamiz:***

- 1 *Katta mexanik ta'sirlarga va katta o'lchamli transport vositalarining og'irligiga bardoshli va at ko'rsatish muddati uzoqroq;*



2	<i>Transport kam yonilg`i sarflaydi (10-20 foiz);</i>
3	<i>Mustahkam beton qoplamadan 30 yoki undan ortiq yil davomida ta`mirlash ishlariga muhtoj bo`lmasdan foydalanish mumkin. Asfalt qoplama esa 8-12 yil xizmat qiladi va vaqti-vaqti bilan ta`mirlashni talab etadi;</i>
4	<i>Qoplama ekstremal ob-havo sharoitlariga, yuqori va past havo haroratiga yoki namlik o`zgarishiga yuqori chidamlilikka ega;</i>
5	<i>Ekologik oqibatlarni minimallashtiradi, transport vositalari harakat uchun minimal yonilg`i sarflaydi;</i>
6	<i>Tabiiy resurslarni tejash va ekologik xavfsizlik. Asfalt neftni sanoat usulida qayta ishlash yo`li bilan olinadi, betonning asosiy tarkibiy qismlari esa zararli kimyoviy lalar deyarli yo`q bo`lgan ohaktoshlardir.</i>
7	<i>Qurilish vaqti qisqaradi, yo`lning o`zi kapital ta`mirsiz bir necha o`n yillar xizmat qiladi va texnik xarajatlar pastligini oldindan aytish mumkin.</i>
8	<i>Beton yo`llar yuqori yuk ko`tarish qobiliyatiga ega. Bu asos va pastki qatlamlarga yuklamaning illigini va eskirishga chidamlilik koeffitsiyentini yetarli darajada ta`minlaydi. Ular barqarorlik iyatiga ega, shu jumladan, yuqori va past harorat ta`siriga.</i>
9	<i>Sement-beton yo`llar sirt yopishqoqligining yuqori koeffitsientiga ega. Ularning yorqin yuzasi ng`ida yo`nalish olishni osonlashtiradi va yozda qizib ketishni kamaytiradi. Bundan tashqari, nt-beton aks ettiruvchi effekti tufayli yoritish uchun elektr energiya sarfini 30 foizga kamaytiradi.</i>
10	<i>Eng muhim afzallik — bu umumiy iqtisodiy samaradorlik — sement-beton yo`llarning hayotiy asfalt-betonga qaraganda 2,5-3 baravar ko`p.</i>

O`z navbatida sement-beton yo`llarni yotqizish asfalt-beton yo`llarga qaraganda murakkab texnologik jarayon ekanligini unutmasligimiz lozim. Biroq ushbu mehnat ertaga o`zining ko`p yillik natijasini berishi mumkin. Rimda ham yo`llar qurilishiga alohida e`tibor berilishi natijasida, ko`rib turibmizki ular katta yutuqlarga erishishgan. Ayni mana shu tajribalarni ham biz o`zimizda sinab ko`rishimiz lozim. Ushbu harakat orqali biz mamlakatimizda eng dolzarb bo`lib kelgan muammoni hal qilgan bo`lamiz.



2022-yil dekabr oyidagi statistikalarga qaraydigan bo'lsak, avtomobil yo'llarini qurishda rivojlangan mamlakatlar tajribasini hisobga olish maqsadga muvofiq: AQSHda transport vositalari yuqori tezlikda harakatlanuvchi yo'llarning 60 foizi sement-beton qoplamali. Ushbu ko'rsatkich Germaniyada 38 foizni, Avstriyada 46 foizni tashkil etadi. Xitoy va Yaponiyada ham ko'proq sement-beton yo'llar qurilyapti.

**Rivojlangan mamlakatlarda sement-beton qoplamali yuqori tezlikda harakatlanish mumkin bo'lgan avtomobil yo'llarining ulushi (%):**



Agar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida avtomobil yo'llarining tarkibi, ularning yotqizilish jarayoni to'g'risida nizom ishlab chiqilsa, mamlakatning ko'p yo'llari ijobiy holatga kelib, xalq uchun yana uzoq yillar xizmat qilishi mumkin.

Olimlarning sement-beton haqidagi tadqiqotlariga nazar tashlaydigan bo'lsak, Sharqiy Angliya universiteti betonning issiqxona gazlarini yutish qobiliyatining ijobiy tasirini aniqlashgan, ya'ni u "yashil" qurilish talablariga javob berib, tabiiy karbonatlanish jarayonida issiqxona gazlarini yutadi. Mening fikrimcha, bu narsa hozirgi dolzarb, hammani tashvishga solayotgan mavzulardan o'rin olgan ekologiyamizga ham ancha foyda keltiradi.

Shuningdek, 1930-2013-yillardagi barcha binolar, inshootlar va beton qoplamalar tomonidan atmosfera karbonat angidridning mintaqaviy va global so'rilishini olimlar modellashtirishdi. Bunda 4,5 gigatonna uglerod yoki 16 gigatonna karbonat angidridning so'rilishi aniqlandi. Bu ularni yaratish jarayonida chiqadigan karbonat angidridning taxminan 43 foizi degani. Sement-beton qoplamalar uglerod izining kamayishiga hissa qo'shadi.

Bundan tashqari, nano o'lchovli titan dioksid moddasining beton aralashmasiga qo'shilishi betonning karbonat angidridni (CO<sub>2</sub>) so'rilishini ikki baravar oshiradi. Ushbu tadqiqotlar Perdyu (AQSh) qurilish muhandisligi kafedrasida olimlari tomonidan olib borilgan.

### **Xulosa**

Yuqoridagi tahliliy ishlardan, sement-betonning ijobiy taraflarini ko'rib shuni xulosa qilishim mumkinki, agar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida avtomobil



yo'llarining tarkibi, ularning yotqizilish jarayoni to'g'risida nizom ishlab chiqilsa, mamlakatning ko'p yo'llari ijobiy holatga kelib, xalq uchun yana uzoq yillar xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, tuproq va qo'shimcha qatlamlarni sement bilan mustahkamlash, beton qoplamani yotqizish yoki yo'llarni rekonstruksiya qilish paytida asfaltning asosini sement bilan mustahkamlash yo'llarni yanada mustahkam va iqtisodiy jihatdan foydali qiladi. Qurilish vaqti qisqaradi, yo'lning o'zi kapital ta'mirsiz bir necha o'n yillar xizmat qiladi va texnik xarajatlar pastligini oldindan aytish mumkin. Xususan, "Yashil" qurilish tamoyillarining joriy etilishi jahon hamjamiyatining e'tiborini tortadi, mamlakatning ijobiy imidjini rivojlantirishga ta'sir qiladi, uning turli xalqaro indekslar, jumladan, kredit reytinglari darajasini oshirishda yordam beradi. Demak, avtomobil yo'llari qurilishida sement-betondan foydalanishni tavsiya etish mumkin.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. Qadimgi Rim XII jadval qonunlari
3. Институтции Гая
4. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi
5. <https://lex.uz/uz/>
6. O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi <https://mintrans.uz/useful-articles/o-zbekiston-respublikasidagi-avtomobil-yo-llari-to-g-risida-ma-lumot>
7. "Daryo.uz" internet nashri <https://daryo.uz/2022/12/07/asfalt-yoki-sement-beton-yol-ozbekistonda-ularning-iqtisodiy-vaekologik-korsatkichlari-tahlil-qilindi>



## ЎҒИРЛИК ЖИНОЯТЛАРИНИНГ ВИКТИМОЛОГИК ПРОФИЛАКТИКАСИ ТУШУНЧАСИ ВА ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

**Яхёхон Махмудов**

*Судялар олий мактаби тингловчиси*

Жаҳонда инсонларни турли тажовузлардан ҳимоя қилиш мақсадида виктимологик профилактиканинг самарадорлигини оширишга, уни ташкил этишнинг янги механизмларини ишлаб чиқишга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Бу борада, айниқса, замонавий ахборот технологиялари имкониятларидан кенгроқ фойдаланиш, шунингдек давлат органлари, жамоат ташкилотларининг ўзаро ҳамкорлигини ташкил этиш ҳамда фуқаролар фаоллигини оширишга, қолаверса аҳоли ўртасида ўзларини жиноий тажовузлардан ҳимоя қилиш усул ва шакллари кенг тарғиб қилишга қаратилган чора-тадбирларни ишлаб чиқишга қаратилган илмий-амалий тадқиқотлар муҳим аҳамият касб этмоқда.

Республикамизда давлат ва жамият манфаатлари, айниқса фуқароларнинг мол-мулкни турли тажовузлардан ҳимоя қилишга оид қонун нормалари талабларининг ижросини таъминлаш бўйича виктимологик профилактика чораларининг самарадорлигини оширишга алоҳида эътибор қаратилмоқда.

Хуқуқбузарликлар профилактикасига оид қонун нормалари таҳлиliga асосланган ҳолда таъкидлаш жоизки, хуқуқни муҳофаза қилувчи органларнинг фаолияти нафақат ўғирлик ва уни содир этган шахсга қарши курашишни балки, а) хуқуқбузарликдан жабрланган шахснинг хуқуқ ва эркинликлари ҳамда қонуний манфаатларини ҳимоя қилишни; б) хуқуқбузарликдан жабрланишни келтириб чиқарувчи сабаб-шароитлар ва омилларни аниқлаш ҳамда бартараф этишни; в) хуқуқбузарликнинг содир этилишида жабрланувчилар роли ва уларнинг тутган ўрнини тадқиқ этишни; г) жиноятчи ҳамда жабрланувчилар ўртасидаги ўғирлик содир этилишига олиб келувчи ўзаро муносабатларни ўрганишни; д) низоларни ҳал этишга қаратилган ўғирликларнинг виктимологик профилактикасини ўз қамровига олиши лозим.

Адабиётларда ўғирлик содир этган ва ундан жабрланган шахсларга йўналтирилганлигига қараб, ўғирлик профилактикаси: а) ўғирликнинг содир этилишини олдини олишга қаратилган криминологик; б) ўғирликдан жабрланишни олдини олишга қаратилган виктимологик профилактикага бўлинади.

Ўзбекистон Республикасининг 2014 йил 14 майдаги «Хуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида»ги қонунининг 43-моддасида «Хуқуқбузарликлар профилактикасини бевосита амалга оширувчи орган ёки муассасанинг муайян шахснинг хуқуқбузарликдан жабрланувчига айланиши хавфини камайитиришга